

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**IQTISODIYOT VA MOLIYA VAZIRLIGI HUZURIDAGI  
BOJXONA QO‘MITASI BOJXONA INSTITUTI**

**PARDAYEV TULKIN NASIROVICH**

**O‘ZBEKISTONDA BOJXONA TO‘LOVLARINI UNDIRISH  
MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH**

**08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit**

**Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**  
**Оглавление автореферата докторской (DSc) диссертации**  
**Contents of the Doctoral (DSc) dissertation abstract**

**Pardayev Tulkin Nasirovich**

О‘zbekistonda bojxona to‘lovlarini undirish mexanizmini takomillashtirish.....3

**Пардаев Тулкин Насирович**

Совершенствование механизма взимания таможенных платежей в Узбекистане.....37

**Pardaev Tulkin Nasirovich**

Improving the mechanism for charging customs payments in Uzbekistan.....75

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ

List of published works.....81

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**IQTISODIYOT VA MOLIYA VAZIRLIGI HUZURIDAGI  
BOJXONA QO'MITASI BOJXONA INSTITUTI**

**PARDAYEV TULKIN NASIROVICH**

**O'ZBEKISTONDA BOJXONA TO'LOVLARINI UNDIRISH  
MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH**

**08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit**

**Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Fan doktori (Doctor of Science) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida  
30.09.2014/B2014.5.1279 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Doktorlik dissertatsiyasi Bojxona institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.tsue.uz) va "ZiyoNet" axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy maslahatchi:** **Malikov Toxir Sattorovich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:** **Gulyamov Saidaxror Saidaxmedovich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, akademik

**Jumayev Nodir Xosiyatovich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Tursunov Bobir Ortikmirzayevich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:** **O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi DSc.03/10.12.2019.I.16.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "20" soat 10<sup>00</sup> dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil:100000, Amir Temur shoh ko'chasi, 60A-uy, e-mail: ilmiykengash@tfi.uz.

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1607 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100000, Amir Temur shoh ko'chasi, 60A-uy. Tel.: (99871) 234-53-34; e-mail: kutubxona@tfi.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "06" 03 kuni tarqatildi.

(2025-yil "6" 03 dagi 24- raqamli reyestr bayonnomasi).



**S.U. Mexmonov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**U.V. Gafurov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**S.K. Xudoyqulov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshnidagi ilmiy seminar raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

## KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonning barcha mamlakatlarida tashqi savdo hajmining jadal sur'atlarda o'sib borishi tashqi savdoni soddalashtirish, xususan, mamlakat iqtisodiy va milliy xavfsizligini ta'minlagan holda bojxona to'lovlarini qo'llash borasidagi chora-tadbirlarni taqozo etmoqda. Ma'lumotlarga ko'ra, "bojxona to'lovlari davlat daromadlarining Yevropa Ittifoqida 11-13 foizini, Rossiya Federatsiyasida 28-30 foizini, Xitoy Xalq Respublikasida 3,2 foizni tashkil etmoqda"<sup>1</sup>. Bojxona to'lovlarini undirish mexanizmlarini takomillashtirish maqsadida Jahon savdo tashkiloti hamda Jahon bojxona tashkiloti tomonidan "Bojxona tartib-taomillarini soddalashtirish va uyg'unlashtirish to'g'risida"gi xalqaro Kioto konvensiyasi, "Jahon bojxona tashkilotining Xavfsizlik va jahonda savdoni yengillashtirishning hadli standartlari qoidalari", "Savdo jarayonlarini soddalashtirish bo'yicha Jahon bojxona tashkiloti kelishuvi", Tarif va savdo bo'yicha bosh kelishuv "GATTning 7-moddasini qo'llash to'g'risida kelishuv" kabi xalqaro hujjatlar ishlab chiqilgan<sup>2</sup>. Bugunga kelib, ko'plab mamlakatlarda mazkur konvensiya va kelishuvlar milliy qonunchilikka joriy qilindi. Bu esa jahonda bojxona to'lovlarini undirish mexanizmini takomillashtirish muammolarining dolzarbligini namoyon etadi.

Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida bojxona sohasida zamonaviy axborot texnologiyalarini qo'llash orqali bojxona tartib taomillariga ketadigan vaqt va mablag'ni tejashga zamin yaratuvchi yangi mexanizmlarni joriy etish, tartib-taomillarni yanada soddalashtirish natijasida bojxona to'lovlarini undirishni samarali tashkil etishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ratsionallashtirilgan va avtomatlashtirilgan to'lov tizimlarini joriy etish, bojxona organlari o'rtasida axborot almashinuvini osonlashtiruvchi raqamli platforma va elektron hukumat tizimlarini takomillashtirish, bojxona to'lovlarga tegishli milliy va xalqaro qonun-qoidalarni uyg'unlashtirish, ilg'or amaliyotlar va standartlarni tatbiq etish, moliyaviy nazorat va hisobotdorlikni oshirish, soha kadrlari malakasini oshirish, bojxona jarayonlarida korrupsiyaga qarshi choralarni kuchaytirish bu borada amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi.

O'zbekistonda tashqi savdo rivojlanishini rag'batlantirish, bojxona tartib-taomillarini soddalashtirish, tashqi iqtisodiy faoliyat subyektlariga imtiyoz va preferensiyalar berish, mavjud ma'muriy va texnik to'siqlarni bartaraf etishga alohida e'tibor berilib, bojxona organlari tizimida bojxona to'lovlarini undirish mexanizmini takomillashtirish bo'yicha qator maqsadli chora-tadbirlar amalga

---

<sup>1</sup> Customs duties mean revenue. [https://ec.europa.eu/taxation\\_customs/customs-duties-mean-revenue\\_en](https://ec.europa.eu/taxation_customs/customs-duties-mean-revenue_en) ; Minfin predvaritelno otsenil ispolneniye federalnogo byudjeta v 2021 godu.; <https://regnum.ru/news/economy/3481500.html>; China — Customs And Other Import Duties (% Of Tax Revenue); <https://tradingeconomics.com/china/customs-and-other-import-duties-percent-of-tax-revenue-wb-data.html>.

<sup>2</sup> Mejdunarodnaya Konvensiya (Kioto, 1973) "Ob uproshchenii i garmonizatsii tamojennyyh protsedur". <http://www.wcoomd.org>; Ramochnyye standarty. — [https://www.wcoomd.org/-/media/wco/public/ru/pdf/topics/facilitation/instruments-and-tools/tools/safe-package/ru\\_safe\\_framework.pdf?la=fr](https://www.wcoomd.org/-/media/wco/public/ru/pdf/topics/facilitation/instruments-and-tools/tools/safe-package/ru_safe_framework.pdf?la=fr); Soglasheniye VTO ob uproshchenii protsedur trgovli.[https://tfig.unece.org/RUS/contents/WTO\\_Agreement.htm](https://tfig.unece.org/RUS/contents/WTO_Agreement.htm); Generalnoye soglasheniye po tarifam i tovgovle. <https://ru.wikipedia.org/wiki>



oshirilmoqda. Xususan, O‘zbekistonda 2019-yilda JSTga qo‘shilish jarayonining qayta boshlanishi, 2020-yil 21-dekabrda “Bojxona tartib taomillarini soddalashtirish va uyg‘unlashtirish to‘g‘risida”gi xalqaro konvensiyasi (Kioto konvensiyasi) ratifikatsiya qilinishi mamlakatimizda bojxona to‘lovlarini undirish mexanizmini xalqaro talablarga moslashtirilishida muhim qadam bo‘ldi. Mazkur sohada ko‘plab islohotlar amalga oshirilayotganligiga qaramasdan, mamlakatimiz joriy davrgacha JSTga a‘zo bo‘lmaganligi, bojxona to‘lovlarini undirish mexanizmini xalqaro talablarga to‘liq joriy etilmaganligi, bojxona to‘lovlarini undirishning nazariy-uslubiy jihatlarini o‘rganishni tadqiq etish hamda takomillashtirishni talab etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida”, 2022-yil 27-apreldagi PF-122-son “Bojxona ma‘muriyatchiligini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2019-yil 27-iyundagi PF-5755-son “Soliq va bojxona imtiyozlari berishni yanada tartibga solish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonlari, 2018-yil 29-iyundagi PQ-3818-son “O‘zbekiston Respublikasining tashqi iqtisodiy faoliyatini yanada tartibga solish hamda bojxona-tarif jihatdan tartibga solish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori, Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 6-apreldagi 160-son “O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududiga olib kiriladigan tovarning bojxona qiymatini aniqlash tartibi to‘g‘risidagi” nizam, 2020-yil 9-noyabrdagi 700-son “Bojxona yig‘imlari stavkalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me‘yoriy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi<sup>3</sup>.** Tashqi savdoda bojxona to‘lovlarini qo‘llash mexanizmini takomillashtirish orqali iqtisodiy o‘sishga erishish bo‘yicha ilmiy izlanishlar jahonning yetakchi ilmiy markazlari, jumladan, Jahon banki (World Bank), Iqtisodiy va biznes tadqiqotlari markazi ((The center for Economic and Business research (CEBR), USA), Fiskal tadqiqotlar instituti (Institute of Fiscal, Buyuk Britaniya), Oksford universiteti (University of Oxford, Buyuk Britaniya), Iqtisodiy tadqiqotlar milliy byurosi (National Bureau of Economic Research, USA), Garvard universiteti (Harvard University, USA), Chikago universiteti (University of Chicago, USA) Kaliforniya universiteti (University of California, USA), Stenford universiteti (Stanford University, USA), Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi moliya universitetida (Финансовый

---

<sup>3</sup>.<http://www.worldbank.org/> — Jahon banki rasmiy sayti. <https://cebr.com/> - Iqtisodiy va biznes tadqiqotlari markazi rasmiy sayti. <http://www.nber.org/> — Iqtisodiy tadqiqotlar milliy byurosi rasmiy sayti. [www.ifs.org.uk](http://www.ifs.org.uk) — Fiskal tadqiqotlar instituti rasmiy sayti. [www.ox.ac.uk](http://www.ox.ac.uk) — Oksford universiteti rasmiy sayti. [www.harvard.edu](http://www.harvard.edu) — Garvard universiteti rasmiy sayti. [www.uchicago.edu](http://www.uchicago.edu) — Chikago universiteti rasmiy sayti. [www.universityofcalifornia.edu](http://www.universityofcalifornia.edu) — Kaliforniya universiteti rasmiy sayti. [www.stanford.edu](http://www.stanford.edu) — Stenford universiteti rasmiy sayti. <http://www.fa.ru> — Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti rasmiy sayti. <https://academy.customs.gov.ru>. Rossiya bojxona akademiyasining rasmiy sayti.

университет при Правительстве РФ, Россия) Rossiya Bojxona akademiyasi (Rossiya)da tadqiqotlar olib borilgan.

Tashqi savdoni bojxona to'lovlari orqali tartibga solish mexanizmini takomillashtirish hamda ularning mamlakat iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlaridagi ulushini oshishiga erishish yuzasidan jahonda bir qator ilmiy tadqiqotlar natijasida eksportga yo'naltirilgan kichik tadbirkorlik subyektlari faoliyatini soliq va bojlar orqali qo'llab-quvvatlash natijasida iqtisodiy samaradorlik darajasining oshishi uslubiyoti yaratilgan (University of Chicago, USA); YAIMga nisbatan soliq yukining oshishi natijasida real YAIM hajmining kamayishi me'yorlari ishlab chiqilgan (University of Chicago, AQSH); iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlariga ta'sir ko'rsatuvchi soliqlarning, shuningdek, bojlarning tarkibiy tuzilmasi, "Soliqlar, bojlar va iqtisodiy o'sish" shkalasi ishlab chiqilgan (Institute of Fiscal, Buyuk Britaniya).

Bugungi kunda jahon miqyosida tashqi savdoda bojxona to'lovlarini qo'llash mexanizmini takomillashtirishga doir quyidagi ustuvor yo'nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda: bojxona to'lovlari stavkalarini qo'llash, bojxona to'lovlarini hisoblash metodikasini takomillashtirish, bojxona to'lovlariga ta'sir etuvchi omillar va ulardan samarali foydalanish, bojxona to'lovlarini undirish jarayonida risklarni boshqarishning zamonaviy mexanizmlari joriy etilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Tashqi iqtisodiy faoliyatning muhim yo'nalishlaridan biri – tashqi savdoni davlat tomonidan tartibga solish jarayonida ishlatiladigan tarif va notarif usullari, shu jumladan, o'ziga xos dempingga qarshi, kompensatsiya, maxsus bojlar, aksiz solig'i va qo'shilgan qiymat solig'i kabi iqtisodiy, ma'muriy va texnik choralarning nazariy-uslubiy jihatlari S.L.Bryu, V.Yu.Grechkov, V.G.Draganov, A.Kireev, Dj.Keyns, Ye.E.Kostik, K.R.Makkonell, L.Mizes, M.Porter, Yu.N.Rostovskiy, J.Saks, V.G.Svixunov, E.A.Tixonovich, M.Fridmen, Ye.D.Xalevinskaya, E.Chemberlin kabi xorijlik iqtisodchi olimlar tomonidan hamda Umumjahon savdo tashkilotining me'yoriy hujjatlarida tadqiq etilgan hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan<sup>4</sup>.

O'zbekiston Respublikasida tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish va uni tartibga solish hamda bojxona faoliyati samaradorligini oshirish, bojxona to'lovlarini qo'llashning ilmiy-nazariy asoslari va mavjud muammolarning amaliy

---

<sup>4</sup> Брю С.Л., Макконелл К.Р., Экономикс: принципы, проблемы и политика: В 2-х томах. Пер. с англ. -М, 1997. -799 с.; Мизес Л. Антикапиталистическая ментальность; Пер. с англ. — Нью-Йорк : ТЕЛЕКС, 1992. — 79с.;; Портер М. Международная конкуренция : Конкурентные преимущества стран. Пер. с англ. -М: "Международные отношения", 1993. -896 с.; Сакс Д.Д. Макроэкономика. Глобальный подход : Пер. с англ./ Сакс Д.Д., Хайек, Ф. А. Частные деньги : Пер. с англ./М: Ин-т Национальной Модели Экономики , 1996. - 230с.; Фридмен М. Основы монетаризма: Пер.с англ. -М: Теис, 2002. -175с.; Халевинская Е.Д. Вавилова Е.В. Всемирная торговая организация и российские интересы. -М.: Магистр, 2009. -367с.; Чемберлин Э. Теория монополистической конкуренции: реориентация теории стоимости; Пер. с англ. — Москва : Экономика, 1996.-351с.; Драганов В.Г. Таможенно-тарифная стратегия присоединения России к ВТО: Автореферат диссертации на соискание ученой степени канд. экон. наук. — М.:1999.-31 с.; Киреев А. Международная экономика В двух частях. -М: "Международные отношения", 2002. -415с.; Костик Е.Е. Развитие таможенного сотрудничества государств — членов ЕврАзЭС: Автореферат диссертации на соискание ученой степени канд. экон. наук — М., 2005.-28с.; Свихунов В.Г. Таможенно-тарифное регулирование внешнеэкономической деятельности. Учеб. пособие. — М.: Экономист, 2004.-455с.; Тихонович Э.А. Таможенно-тарифный компонент национальной внешнеторговой политики. //Автореферат диссертации на соискание ученой степени к.э.н. —Волгоград, 2002.-125с.

yechimlari iqtisodchi olim va mutaxassislardan A.Alimov, Z.Adilova, A.Vahabov, T.Malikov, N.Maxmudov, O.Olimjonov, A.Jo‘rayev, R.Karimov, N.Nuraliyev, S.G‘ulomov, N.Sirojiddinov, Sh.Toshmatov, R.Turapov, F.Sharipov, N.Zufarova, S.Aripov, R.Shodiyev, A.Qodirov, Sh.Azizov, Z.Makkamov va boshqalarning ilmiy-tadqiqotlarida o‘z aksini topgan<sup>5</sup>.

Yuqoridagi ilmiy-tadqiqot ishlarida bojxona to‘lovlarini hisoblash, undirish va davlat budjeti daromadlar qismiga o‘tkazish mexanizmining ayrim jihatlari o‘rganilgan. Biroq, hali bu sohada bojxona to‘lovlarini undirish mexanizmi tizimli ravishda hamda kompleks holda qamrab olgan, metodologik jihatdan asoslangan ilmiy-tadqiqotlar yetarlicha olib borilmagan. Bular ilmiy-tadqiqot ishining muhimligi va tanlangan mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim yoki ilmiy tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “Davlat bojxona qo‘mitasi Bojxona institutining bojxona sohasi bo‘yicha ilmiy-tadqiqot faoliyatining ustuvor yo‘nalishlari mavzulari ro‘yxati” (2022-yil 16-martdagi R-3/22-056-sonli chora-tadbirlar rejasining 1-bandi), “Bojxona organlari tomonidan fiskal vazifalarni amalga oshirishning samarali usullari” (3-bandi) yo‘nalishidagi loyiha doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** O‘zbekistonda bojxona to‘lovlarini undirish mexanizmini takomillashtirish borasida ilmiy asoslangan taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

---

<sup>5</sup> Алимов Р.О., Расулов А.Ф., Қодиров А.М. ва бошқ. Ред. Гуломов С.С. Ўзбекистон иқтисодий тиниқ рақобатбардошлигини ошириш муаммолари: назария ва амалиёт/ -Т.: Konsauditinform-Nashr, 2006. -440б.; Адилова З.Д.Халқаро бозорларга экспорт маҳсулотларини йўналтиришнинг маркетинг стратегияси.Иқт.фан.док. илмий даража олиш учун ёзилган диссертация автореферати -Т.:2008.-20б.; Вахабов А.В., Мировая экономика. В 2-х.т.-Т.: Национальный Университет Узбекистана, 2006.Т.1.302с.; Вахабов А.В., Приоритетные направления либерализации внешнеэкономических связей в странах с переходной экономикой., В 2-х.т.-Т.:2002.Т.1.С.122-131.; Вахабов А.В., Теоретические аспекты развития международной экономической интеграции и факторы, определяющие ее динамику-Т.: Молия, 2006.-448с.; 59. Маликов Т. С., Олимжонов О.О. Молия. Дарслик.-Т.: Iqtisod-moliya. 2019.;Маликов Т. С. Молия: назарий асослар. Ўқув кўлланма.-Т.: Iqtisod-moliya. 2021. Жўраев А.С., Солиқ-бюджет сиёсати яхлитлиги ва унинг давлат бюджети даромадлари ижросидаги аҳамияти // Ўзбекистон иқтисодий ахборотномаси. 2005.-№1-2. 14-16б.; Жўраев А.С., Солиқ-бюджет сиёсатининг бюджет ижросидаги аҳамияти // Бозор, пул ва кредит. 2006. — №1 –Б. 17-18б.; Каримов Р. Узбекистан на пути к новой экономике/ Экономический вестник Узбекистана. -Ташкент, 2002. — № 9. — С. 3-6; Нуралиев Н.Н. Либерализация внешней торговли Кыргызской Республики в условиях переходной экономики. Автореферат диссертации на соискание ученой степени канд. экон. наук -Т.:2006.-20б.; Сирожиддинов Н. Узбекистан: путь к экспорториентированному развитию/ Мировая экономика и международные отношения. -М, 2002. — №7. — С. 88-92; Тошматов Ш. А., Роль налогов в привлечении иностранных инвестиций в экономику Узбекистана.// Экономика и финансы.- М.: 2007.- №3.-с.69-72.; Тошматов Ш. А., Влияние акцизного налога на спрос и предложение.// Экономика и финансы.-М.: 2007.-№12. с.69-71.; Н.Зуфарова. Ташқи савдо фаолиятининг тариф бошқарувида божхона тарифи вазибалари. Ж.Иқтисод ва молия №7 2011й.13-16 бетлар.Шодиев Р.Х. Жаҳон иқтисодиёти номли дарслик. Т.: Гулом Ф. нашриёти. 2005.2006. Турапов Р.А. Ўзбекистон Республикасида божхона фаолияти самарадорлигини оширишнинг асосий йўналишлари.: и.ф.д. илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати/ -Т.: 2006 й. -38 б. Шарипов Ф.Ф. Ўзбекистонда ташқи савдони тартибга солишда солиқ сиёсатини такомиллаштириш.: и.ф.д. илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати/ -Т.: 2019 й. Арипов С. Ташқи савдони божхона тўловлари орқали тартибга солишни такомиллаштириш.: и.ф.н. илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати/ -Т.: 2009 й. -20 б.



### **Tadqiqotning vazifalari:**

tashqi savdoni tartibga solishda bojxona to'lovlari mexanizmi va uning funksional elementlarini ilmiy-nazariy asoslarini ochib berish;

bojxona to'lovlarning fiskal funksiyasining konseptual asoslari va uni tashkiliy-huquqiy bazasini o'rganish;

bojxona to'lovlarini hisoblash va undirishning o'ziga xos xususiyatlarini ochib berish;

O'zbekiston Respublikasida bojxona to'lovlarining turlari va stavkalarini optimallashtirish borasida islohotlarni tahlil qilish;

bojxona organlari tomonidan undirilgan, davlat budjetining daromadlariga o'tkazilgan bojxona to'lovlarini samaradorligini baholash va mavjud muammolarini hal qilish imkoniyatlarini baholash;

bojxona to'lovlaridan berilgan imtiyozlar va preferensiyalarni samaradorligi tahlil qilish va mavjud muammolarni aniqlash;

bojxona to'lovlari tushumiga ta'sir etuvchi asosiy omillarni tizimlashtirish va optimallashtirish bo'yicha ko'p omillik ekonometrik tahlilini amalga oshirish va o'rta muddatli prognozlarini ishlab chiqish;

O'zbekiston Respublikasi tashqi savdo aylanmasi va undagi tarkibiy o'zgarishlarni kompleks baholash vositasida boj tarif siyosati orqali barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashining ustuvor yo'nalishlarini asoslash;

bojxona qiymatini aniqlash uslubiyotini yanada takomillashtirishga yo'naltirilgan ilmiy takliflar tizimini ishlab chiqish;

bojxona to'lovlarini undirish samaradorligini oshirishda foydalanilayotgan elektron dasturlar va xorijiy mamlakatlar tajribasini o'rganish natijasida mobil ilovalarni takomillashtirish;

bojxona to'lovlaridan qarzdorlikning kelib chiqish sabablari, ularni oldini olish va undirishning zamonaviy mexanizmini ishlab chiqish;

xalqaro integratsion jarayonlarda bojxona to'lovlarini qo'llash va undirish mexanizmini takomillashtirish istiqbollari belgilash.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida bojxona organlarida bojxona to'lovlarini undirish mexanizmi tanlangan.

**Tadqiqotning predmeti** O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasida bojxona to'lovlarini undirish mexanizmini amalga oshirish jarayonida vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlardan iborat.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiyada ilmiy abstraksiyalash, tahlil va sintez, kuzatish, taqqoslash, ekspert baholash, matematik modellashtirish, ekonometrik tahlil, statistik guruhlash, SWOT tahlil usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

bojxona rasmiylashtiruv jarayonida undiriladigan bojxona yig'implari miqdorining bojxona organlari tomonidan bojxona harakatlarini amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarining taxminiy qiymatidan oshib ketmasligini belgilash orqali bojxona to'lovlarini undirishning xalqaro talablarga muvofiqligini ta'minlash asoslangan;

jismoniy shaxslarning chegara bojxona postlari orqali notijorat maqsadlarida olib kirilayotgan va belgilangan me'yorlardan ortiq bo'lgan tovarlarini chegara

bojxona postlari tomonidan vaqtincha saqlaganlik uchun yig'im joriy etish asosida bojxona chegarasidan o'tayotgan jismoniy shaxslarga qulaylik yaratish hamda budjetga tushumlar hajmini oshirish taklifi ishlab chiqilgan;

majburiyatning sud qaroriga ko'ra tugatilganligi oqibatida yoxud qarzdor bankrot bo'lganligi, tugatilganligi yoki vafot etganligi oqibatida to'lanishi mumkin bo'lmagan bojxona to'lovlari bo'yicha qarzdorlikni umidsiz qarz deb hisoblash orqali bojxona to'lovlarini undirish mexanizmini takomillashtirish asoslangan;

bojxona to'lovlarini vakolatli iqtisodiy operatorlarga kechiktirib yoki bo'lib-bo'lib to'lash imkoniyati berilganda ushbu muddat uchun foizlar hisoblamaslik hamda bojxona qiymatining ehtimoliy diapazonini avtomatik aniqlovchi axborot tizimini joriy etish yo'li bilan "Narx ma'lumotlar byulleteni"ni to'liq bekor qilish taklifi asoslangan;

O'zbekistonda bojxona to'lovlarini miqdoriga ta'sir etuvchi ko'p omillik ekonometrik tahlillar natijasida bojxona to'lovlarining optimal miqdori va tushumlarning 2027-yilga qadar o'rta muddatli prognozlari ishlab chiqilgan.

#### **Tadqiqotning amaliy natijasi** quyidagilardan iborat:

bojxona to'lovlariga ta'sir etuvchi omillar turkumlarga ajratilgan va ular ekonometrik tahlil etilgan hamda bojxona to'lovlari miqdoriga ta'sir etuvchi omillarning ta'siri o'rganilib, bojxona to'lovlarining miqdorini oqilona oshirish bo'yicha ilmiy asoslangan xulosalar berilgan;

bojxona rasmiylashtiruvi bilan bog'liq bo'lmagan bojxona yig'imlarini undirishda bojxona kirim orderining soddalashtirilgan shaklini qo'llash asosida bojxona to'lovlarini undirish mexanizmi takomillashib, tovarlarni bojxona chegarasidan olib o'tishda bojxona rasmiylashtiruviga ketadigan vaqt qisqargan;

avtotransport vositalaridan bojxona to'lovlarini undirishning tartib-taomillari va chet ellarning bu yo'nalishdagi ilg'or tajribalari asosida telegram kanali uchun "@autocalculatorbot" telegram-boti ilmiy ishlanmasi yaratilgan;

jismoniy shaxslardan bojxona to'lovlarini undirish mexanizmini takomillashtirish maqsadida "infoCustomsUzBot" telegram-boti ilmiy ishlanmasi yaratilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** ilmiy ishda qo'llanilgan yondashuv va usullar, uning doirasida foydalanilgan nazariy yondashuvlar rasmiy manbalardan olingani, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi amaliy ma'lumotnomalari, O'zbekiston Respublikasi Bojxona qo'mitasining statistik va amaliy ma'lumotlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligining statistik ma'lumotlari, shuningdek, boshqa amaliy ma'lumotlar tahliliga asoslanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotda joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati unda ilgari surilgan nazariy qoidalar va xulosalardan tashqi savdoni tartibga solishda bojxona to'lovlarini qo'llash bo'yicha ilmiy ish olib borishda, davlat tomonidan tashqi savdoni tartibga solishda, davlat budjeti daromadlarini shakllantirishni takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ilmiy-tadqiqot natijasida olingan

amaliy ahamiyatdagi xulosa va takliflarning O‘zbekiston Respublikasi Bojxona qo‘mitasining bojxona to‘lovlarini undirish mexanizmini takomillashtirishda, shuningdek, oliy o‘quv yurtlarida “Bojxona to‘lovlari”, “Bojxona xizmatining fiskal faoliyati”, “Bojxona qiymati”, “Tashqi iqtisodiy faoliyat asoslari” va “Soliq va soliqqa tortish” fanlarini o‘qitishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarini joriy qilinishi.** O‘zbekistonda bojxona to‘lovlarini undirish mexanizmini takomillashtirish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

bojxona rasmiylashtiruvi jarayonida undiriladigan bojxona yig‘imlari miqdorining bojxona organlari tomonidan bojxona harakatlarini amalga oshirish bilan bog‘liq bo‘lgan xarajatlarining taxminiy qiymatidan oshib ketmasligini belgilash orqali bojxona to‘lovlarini undirishning xalqaro talablarga muvofiqligini ta‘minlash taklifi O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 1-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksiga qo‘shimcha va o‘zgartishlar kiritish to‘g‘risida” O‘RQ-748-son Qonunining 58-bandida o‘z ifodasini topgan (O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo‘mitasining 2023-yil 16-sentyabrdagi 8/25-23-110-son ma‘lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida bojxona yig‘imlarini bojxonada ko‘rsatilgan xizmatlar uchun sarflangan xarajatlar miqdoriga binoan belgilanishining Jahon savdo tashkiloti talablariga mos kelishi ta‘minlangan;

jismoniy shaxslarning chegara bojxona postlari orqali notijorat maqsadlarida olib kirilayotgan va belgilangan me‘yorlardan ortiq bo‘lgan tovarlarini chegara bojxona postlari tomonidan vaqtincha saqlaganlik uchun yig‘im joriy etish asosida bojxona chegarasidan o‘tayotgan jismoniy shaxslarga qulaylik yaratish hamda budjetga tushumlar hajmini oshirish taklifi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 9-noyabrdagi 700-son “Bojxona yig‘imlari stavkalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarorida o‘z aksini topgan (O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo‘mitasining 2023-yil 16-sentyabrdagi 8/25-23-110-son ma‘lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi chegara bojxona postlari tomonidan vaqtincha saqlaganlik uchun bojxona xizmatini amalga oshirilganligi uchun yig‘im joriy etilishi bojxona chegarasidan o‘tayotgan jismoniy shaxslarga qulaylik yaratgan va bojxona to‘lovlarining ko‘payishiga olib kelgan;

majburiyatning sud qaroriga ko‘ra tugatilganligi oqibatida yoxud qarzdor bankrot bo‘lganligi, tugatilganligi yoki vafot etganligi oqibatida to‘lanishi mumkin bo‘lmagan bojxona to‘lovlari bo‘yicha qarzdorlikni umidsiz qarz deb hisoblash orqali bojxona to‘lovlarini undirish mexanizmini takomillashtirish taklifi O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 1-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksiga qo‘shimcha va o‘zgartishlar kiritish to‘g‘risida” O‘RQ-748-son Qonunining 70-bandida aks etgan (O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo‘mitasining 2023-yil 16-sentyabrdagi 8/25-23-110-son ma‘lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida bu yo‘nalishda yillar davomida muammo bo‘lib kelayotgan holatlar o‘z yechimini topgan;

bojxona to‘lovlarini vakolatli iqtisodiy operatorlarga kechiktirib yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lash imkoniyati berilganda ushbu muddat uchun foizlar hisoblamaslik

hamda bojxona qiymatining ehtimoliy diapazonini avtomatik aniqlovchi axborot tizimini joriy etish yo'li bilan "Narx ma'lumotlar byulleteni"ni to'liq bekor qilish takliflari O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 1-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksiga qo'shimcha va o'zgartishlar kiritish to'g'risida" O'RQ-748-son Qonunining 67-bandi hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 27-apreldagi "Bojxona ma'muriyatchiligini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PF-122-son Farmoniga 2-ilovaning 47-bandida o'z aksini topgan (O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo'mitasining 2023-yil 3-oktyabrdagi 8/25-23-111-son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi tadbirkorlikda halol tashqi iqtisodiy faoliyat qatnashchilar sonining ko'payishiga, tovarlardan bojxona to'lovlarini undirishda asos bo'lib xizmat qiluvchi bojxona qiymatini aniqlash mexanizmi takomillashuvi orqali tovarlarni bojxona qiymati indeksini oshishiga olib kelgan va bojxona to'lovlarining asosli ko'payishiga sabab bo'lgan;

O'zbekistonda bojxona to'lovlarining miqdoriga ta'sir etuvchi ko'p omillik ekonometrik tahlillar natijasida bojxona to'lovlarining optimal miqdori va tushumlarning 2027-yilga qadar ishlab chiqilgan o'rta muddatli prognozlari O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo'mitasi tomonidan foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo'mitasining 2023-yil 3-oktyabrdagi 8/25-23-111-son ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida davlat budjeti daromadlariga o'tkaziluvchi bojxona to'lovlarining o'rta muddatli istiqboldagi parametrlari o'rtasidagi muvofiqlikni ta'minlash imkoni yaratilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari jami 13 ta, jumladan 9 ta xalqaro va 4 ta respublika miqyosida o'tkazilgan ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokama qilingan va ijobiy xulosalar olingan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Tadqiqot natijalari bo'yicha jami 47 ta ilmiy ish, jumladan, 2 ta monografiya, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan mahalliy jurnallarda 9 ta, xorijiy jurnallarda 2 ta ilmiy maqola chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, beshta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 246 betni tashkil qiladi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, ob'ekti va predmeti belgilab olingan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, dissertatsiyaning mavzusi bo'yicha xorijiy tadqiqotlar sharhi keltirilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy-amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etilishi, erishilgan natijalar, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tarkibiy tuzilishiga doir ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Bojxona to‘lovlari davlat budjeti daromadlariga undirishning ilmiy-nazariy asoslari**” deb nomlangan birinchi bobida, bojxona to‘lovlarning mohiyati va ularni qo‘llashning obyektiv zarurati, asosiy funksiyalari, O‘zbekiston Respublikasi davlat budjeti daromadlarini shakllantirishda bojxona to‘lovlari va ularni undirishning uslubiy jihatlari, bojxona to‘lovlari hisoblashning o‘ziga xos xususiyatlari va muhim nazariy jihatlari o‘rganilgan.

Bojxona to‘lovlari undirish tovarlarning bojxona rasmiylashtiruvining asosiy sharti hisoblanib, O‘zbekistonda uning tarkibiga bojxona boji, aksiz solig‘i, qo‘shilgan qiymat solig‘i, bojxona yig‘imlari va boshqa bojxona to‘lovlari kiradi.

Davlatlarning rivojlanish darajasi bo‘yicha dunyo mamlakatlarida turli xil bojxona to‘lovlari qo‘llaniladi va ularni undirish mexanizmi elementlari boj-tarif siyosatining asosiy moliyaviy instrumentlarini o‘zida mujassamlashtiradi. Iqtisodiy adabiyotlarda bojxona to‘lovlari tushunchasiga iqtisodchi olimlarning bergan tariflari va yondashuvlari quyidagicha (1-jadval).

### 1-jadval

#### Bojxona to‘lovlari tushunchasiga iqtisodchi olimlarning tariflari va yondashuvlari<sup>6</sup>


Mualliflar	Mavzuga oid adabiyot mualliflarining talqini
D.A.Slepov, Y.V. Chuykov	Bojxona to‘lovlari — bojxona organlari xodimlari tomonidan hisoblanadigan va federal budget daromadlar qismini to‘ldiruvchi manba hisoblanadi.
V.Yu.Jukoves	Bojxona to‘lovlari deganda, tovarlarni bojxona ittifoqining bojxona chegarasi orqali olib o‘tishda bojxona organlariga majburiy ravishda, shaxs tomonidan to‘lanishi kerak bo‘lgan barcha to‘lovlarning yig‘indisi tushuniladi.
R.Chobanu	Bojxona to‘lovlari-bu tovarlar import, eksport yoki tranziti uchun chegarani kesib o‘tganda davlat tomonidan olinadigan mablag‘lar.
O.Yu.Bakayev	Bojxona to‘lovlari — belgilangan tartibda bojxona organlari tomonidan yig‘iladigan va tovarlarni bojxona ittifoqining bojxona chegarasi orqali olib o‘tishda to‘lanadigan soliq va budgetga tushadigan soliq va soliqdan tashqari tushumlar vazifasini bajaradigan majburiy to‘lovlardir.
V.G.Svinuxov	O‘zini ikki ilmiy ishida bojxona to‘lovlari atamasiga ikkita tarif beradi. 1.Bojxona to‘lovlari — tovarlarni olib kirish yoki eksport qilishda bojxona organlari tomonidan olinadigan va tovarlarni olib kirish yoki eksport qilishning zaruriy sharti bo‘lgan majburiy to‘lov sifatida ta’rif beradi. 2.Bojxona to‘lovlari bojxona organlari tomonidan olinadigan, bojxona chegaralari orqali tovarlarni olib o‘tish bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan soliqlar va yig‘imlardir. Shu bilan birga ularni to‘lash bojxona protseduralarini qo‘llashning muhim shartidir.
G.Munyoro, B.Chiinze, Y. M.Dzapasi	Bojxona to‘lovlari-bu tovarlarni mamlakatga olib kirilganda yoki mamlakatdan olib chiqilganda olinadigan soliqlardir.

<sup>6</sup>Slepova D.A.,Chuykova Ye.V. Tamojennye plateji, ischislyayemye tamojennymi predstavityami kak istochnik formirovaniya doxodov federalnogo byudjeta Rossiyskoy Federatsii. Ekonomika i upravleniye: novye vyzovy i perspektivy. 2016;(11):192–196. Jukoves V.Yu. Tamojennoye pravo v voprosax i otvetax.M.2005.s 98 Ciobanu, R. (2015). The National Institutional System with Competence in Administering Customs Duties. Bulletin of the Transilvania University of Braşov, Series VII: Social Sciences and Law, (2), 181-188. Bakayeva O.Yu. Pravovoye regulirovaniye finansovoy deyatelnosti RF. Saratov.2005 s28.. Svinuxova V.G. Tamojennoye delo.M.2005 g. S.251. Munyoro, G., Chiinze, B., & Dzapasi, Y. M. (2016). The Role of Customs and Excise Duties on Small Enterprises: A Case Study of Women Cross Border Traders. ADRRI Journal (Multidisciplinary), 25(10), 25-48. Nalogovaya politika: teoriya i praktika / pod red. prof. I.A. Maybureva. M.: YUNITI, 2010, s. 316. Jo‘rayev A., Meyliyev O., Safarov G‘. Soliq nazariyasi. O‘quv qo‘llanma. – T.: Toshkent Moliya instituti, 2004. – 166 b.

Yuqoridagi yondashuvlar yuzaga kelayotgan zamonaviy tendensiyalarga muvofiq mualliflik yondashuvini yuzaga keltirdi: “Bojxona chegarasi orqali olib o‘tilayotgan tovar-moddiy boyliklar uchun Davlat budjetining daromadlar qismi uchun undiriladigan to‘lovlar bojxona to‘lovlari deyiladi”<sup>7</sup>. Iqtisodiy kategoriya sifatida bojxona to‘lovlari bir qator funksiyalarni o‘zida mujassamlashtirib, tashqi savdoni samarali tarkibini ta‘minlash, mahalliy ishlab chiqaruvchilarini chet elning nosog‘lom raqobatidan himoyalash, davlat budjeti daromadlar qismini shakllantirish kabi funksiyalarni bajaradi.

Bojxona to‘lovlarini to‘lash majburiyati: tovar bojxona to‘lovlarini to‘lash nazarda tutilgan bojxona rejimiga joylashtirilganda va tovarlar erkin muomalaga chiqarib yuborilganidan keyin bojxona nazoratini amalga oshirish natijasida bojxona to‘lovlari qo‘shimcha hisoblangan taqdirda yuzaga keladi.

O‘zbekiston Respublikasida jami undiriladigan bojxona to‘lovlarini tarkibida olib kirilayotgan tovarlardan undiriladigan bojxona to‘lovlari 99 %ni tashkil etadi. Bojxona to‘lovlarining turlari turli xil bo‘lganligi uchun jami undirilgan bojxona to‘lovlari tarkibida ularning ulushi turlicha va hisoblash uslubiyoti har xil.



**1-rasm. O‘zbekiston Respublikasida qo‘llaniladigan bojxona bojlarining turlari<sup>8</sup>**

Bojxona bojlari va aksiz solig‘ini undirish tovarlarning tashqi iqtisodiy faoliyat tovarlar nomenklaturasidagi kod raqamiga bog‘liq bo‘lib, aksincha qo‘shilgan qiymat solig‘i va bojxona yig‘imlarini undirishda tovarlarning tashqi iqtisodiy faoliyat tovarlar nomenklaturasidagi kod raqamiga bog‘liq bo‘lmaydi. Bojxona yig‘imlari bojxona organlari xodimlari tomonidan ko‘rsatilgan xizmatlari uchun undiriladi.

Bojxona to‘lovlarini undirish mexanizmiga tarif beradigan bo‘lsak, bu bojxona to‘lovlarini hisoblash, undirish va davlat budjetiga o‘tkazish bosqichlarini o‘z ichiga olgan jarayonlarni o‘z ichiga oladi. Yuqoridagi har bir jarayonni to‘g‘ri amalga oshirish bojxona to‘lovlarini undirish mexanizmi samaradorligini oshiradi. Bojxona to‘lovlarini undirish mexanizmi samaradorligini oshirish bojxona tartib-tamoyillarini soddalashtirish, uni undirishning huquqiy bazasini takomillashtirish,


<sup>7</sup> Muallif ishlanmasi.

<sup>8</sup>.Pardayev T.N. Iqtisodiyotning globallashuvi sharoitida bojxona to‘lovlarini qo‘llashni takomillashtirish istiqbollari.J.Iqtisodiyot va ta‘lim./ 2022-yil 2-son.277 b.



bojxona to'lovlarini undirishda axborot dasturlaridan keng foydalanishga bog'liq.

Bojxona to'lovlarini to'lash uchun banklarga tadbirkorlarni transaksion xarajatlarini qisqartirish maqsadida, bugungi kunda mobil ilovalar orqali, ya'ni M-Bank, Upay, Payme, Uzcard, Click onlayn to'lovlar tizimlari orqali to'lash tizimi joriy qilingan.



**2-rasm. Bojxona to'lovlarini davlat budjetiga o'tkazish sxemasi<sup>9</sup>**

Bojxona to'lovlari stavkalari va imtiyozlarini ishlab chiqishda hamda qabul qilishda va undirishda yagona metodologik asos ishlab chiqilmagan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining boj-tarif stavkalarini ishlab chiqishning samarali mexanizmi yoki algoritmi ishlab chiqilmaganligi, import boji stavkalarining tez o'zgarishiga sabab bo'lmoqda. Tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solish tizimida milliy boj-tarif siyosatining nobarqarorligi o'z navbatida davlatning investitsion jozibadorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, bojxona to'lovlarini undirishda raqamlashtirishni rivojlanishi bilan me'yoriy hujjatlarga tovarning bojxona kuzatuv hujjatlari va boshqa bojxona to'lovlarga bog'liq hujjatlarning elektron nusxalarini qog'oz shakli bilan bir xil maqomini belgilovchi normalar kiritilmaganligi kabi muammolar mavjuddir.


Muallif fikricha, bojxona to'lovlari stavkalarini belgilash, imtiyozlarini va bojxona to'lovlarini undirish mexanizmini qo'llashning yagona metodologik asosini ishlab chiqishni taqozo etadi. Bu import boji stavkalarining tez o'zgarishini oldini olib, imtiyozlarini to'g'ri qo'llash va bojxona to'lovlarini undirish mexanizmini yanada takomillashini ta'minlaydi, milliy boj-tarif siyosatining barqarorligiga olib

<sup>9</sup> Me'yoriy hujjatlar asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

keladi. Ushbu holat davlatning investitsion jozibadorligini oshishiga xizmat qiladi. Shuningdek, bojxona to'lovlarini undirishda raqamlashtirishni rivojlanishi bilan me'yoriy hujjatlarga tovarning bojxona kuzatuv hujjatlari va boshqa bojxona to'lovlariga bog'liq hujjatlarning elektron nusxalarini qog'oz shakli bilan bir xil maqomini belgilovchi normalarni kiritish maqsadga muvofiqdir.

Dissertatsiyaning **“O‘zbekiston Respublikasida bojxona to‘lovlarini qo‘llashning hozirgi holatining tahlili”** nomli ikkinchi bobida, O‘zbekiston Respublikasida bojxona to‘lovlarini turlari va stavkalarini optimallashtirish borasida amalga oshirilgan ishlar, bojxona organlari tomonidan undirilgan va davlat budgetiga o‘tkazilgan bojxona to‘lovlari, bojxona to‘lovlaridan berilgan imtiyoz va preferensiyalar tahlili, muammolar va ularni hal qilishning metodologik asoslari tadqiq etilgan.

Mustaqillikning dastlabki yillarida O‘zbekiston Respublikasida ichki bozorni to‘ldirish siyosati olib borilganligi sababli, past stavkalik bojxona to‘lovlari qo‘llanilgan. O‘tgan davrda import bojxona bojining stavkalari qo‘llanilishi davomida doimiy ravishda takomillashib borishi natijasida, import bojxona bojining o‘rtacha tortilgan stavkasi 2003 va 2019-yillarda 15,31 % dan 8,02 %ga yoki 1,9 martaga kamaygan.



**3-rasm. Tashqi iqtisodiy faoliyatni tarif orqali tartibga solishda qabul qilingan me'yoriy hujjatlarda import bojxona bojining o‘rtacha stavkasini o‘zgarishi, %da<sup>10</sup>**

Dunyo mamlakatlarida bojxona boji stavkalari uchga, ya'ni advalor, xos va aralash stavkalariga bo‘linadi. Advalor stavkani ulushi jami stavkalarni tarkibida AQSHda 88,9 %ni, Yevropa Ittifoqida 90,2 %ni, Yaponiyada 93,8 %ni va Kanada davlatida 95,3 %ni, O‘zbekiston Respublikasida 86,2 %ni tashkil etadi. Bu davlatlarda xos stavkalar 2,5 %dan 8,0 %gachani, aralash stavkalar 2,5 %dan 3,5 % gachani, bu ko‘rsatkich O‘zbekiston Respublikasida esa 13,8 %ga tengdir.

Import bojxona bojiga nol darajali stavkalar miqdori Yevropa ittifoqida 16,7 % tovarlarga nisbatan, Hindistonda 2,1 %, Yevrosiyo iqtisodiy ittifoqida 15,8 %, Turkiyada 37,5 %, Xitoyda 7,1 %, Tojikistonda 4,1 %ni tashkil etadi. O‘zbekiston Respublikasida import bojxona boji stavkalari tarkibida, nol %li stavkalar 39,3 %ga teng.

O‘zbekiston Respublikasida import tovarlariga qo‘shilgan qiymat solig‘i


<sup>10</sup>. Me'yoriy hujjatlar asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

2019-yilgacha - 20 %ni, 2020-2022-yillarda - 15 %ni va 2023-yil 1-yanvardan boshlab -12 %ni tashkil etgan.

Chetdan olib kelinayotgan aksiz solig'iga tortiladigan tovarlarning stavkasini pasaytirish bo'yicha ham islohotlar amalga oshirildi. 2021-yildan boshlab, 73 turdagi tovarlarga aksiz solig'i bekor qilindi. Hozirgi kunda atigi 7 turdagi tovarga nisbatan aksiz solig'i stavkasi qo'llanilmoqda.

Bojxona yig'imlarini soddalashtirish bo'yicha oxirgi yillarda bojxona yig'imlari stavkalari aniqlashtirildi va barcha stavkalar erkin almashtiriladigan valyutadan bazaviy hisoblash miqdoriga nisbatan so'mda joriy etildi.

Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, oxirgi yillarda bojxona to'lovlarining stavkalarini pasayishi bilan undirilgan bojxona to'lovlarini miqdori ko'paymoqda. Tahlillarning ko'rsatishicha, bu ko'rsatkich 2014-2023-yillarda 10 martaga oshgan yoki 52,7 trln. so'mga ko'paygan.



**4-rasm. O'zbekiston Respublikasi bojxona organlari tomonidan 2014-2023-yillarda undirilgan bojxona to'lovlari (mlrd. so'mda)<sup>11</sup>**

Yuqoridagi yillarda jami undirilgan bojxona to'lovlarini o'rtacha yillik valyuta kursi bo'yicha AQSH dollariga nisbatan taqqoslanganda, bu ko'rsatkich 2 barobarga oshganligini ko'rishimiz mumkin. Ya'ni, 2014-yilda 2466,19 mln. AQSH dollarini, 2023-yilga kelib esa 4955,64 mln. AQSH dollarini tashkil etgan.

Bojxona to'lovlari bo'yicha davlat budjetiga tushumlarning o'sishiga: tovarlarning bojxona qiymatining aniqlanishini takomillashayotganligi, bojxona to'lovlari stavkalarini o'zgarishi, erkin almashtiriladigan valyuta kursining o'zgarishi, bojxona sohasida avtomatlashtirilgan axborot tizimidan samarali foydalanilayotganligi, bojxona to'lovlarini undirishda xavfni boshqarish tizimini qo'llanilishi, bojxona sohasi bo'yicha me'yoriy-huquqiy bazani takomillashayotganligi kabi asosiy omillar ta'sir etgan.

O'zbekiston Respublikasi bojxona organlari tomonidan 2014-2023-yillarda bojxona to'lovlari tushumining Davlat budjeti daromadlar qismidagi ulushi 7,2 %ga oshgan.

<sup>11</sup> . Bojxona qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

**2-jadval****O‘zbekiston Respublikasida bojxona to‘lovlari tushumining Davlat budjeti daromadlar qismidagi ulushi dinamikasi, %da<sup>12</sup>**

Ko‘rsatkichlar	Yillar									
	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023
Davlat budjeti daromadlar qismida bojxona to‘lovlari tushumining ulushi	18,0	16,0	15,0	15,3	14,5	15,3	18,6	20,2	22,8	25,2

O‘zbekiston Respublikasi bojxona organlari tomonidan 2014-2023-yillarda Davlat budjetiga o‘tkazilgan bojxona to‘lovlari tarkibining o‘zgarishi tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, 2023-yilda Davlat budjeti daromadiga o‘tkazilgan jami bojxona to‘lovlari tarkibida: qo‘shilgan qiymat solig‘i 80,0 %ni, import bojxona boji 16,0 %ni, aksiz solig‘i 0,1 %ni, bojxona yig‘imlari va boshqa to‘lovlar 3,9 %ni tashkil etgan. Holbuki, 2014-yilda bu ko‘rsatkichlar, mos ravishda, 56,1 %, 23,4 %, 17,1 % va 3,4 % bo‘lgan edi. Bu yillarda jami bojxona to‘lovlari tarkibida import bojining ulushi 7,4 % ga, aksiz solig‘i 17,0 %ga kamaygan va aksincha, qo‘shilgan qiymat solig‘i 23,9 %ga, bojxona yig‘imlari va boshqa to‘lovlari 0,5 %ga oshgan.

**3-jadval****O‘zbekiston Respublikasi bojxona organlari tomonidan Davlat budjeti daromadlariga o‘tkazilgan bojxona to‘lovlari tarkibining o‘zgarishi, %da<sup>13</sup>**

Bojxona to‘lovlari turlari	Yillar									
	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023
Qo‘shilgan qiymat solig‘i	56,1	54,5	54,1	60,4	74,5	78,5	79,8	82,1	84,1	80,0
Import bojxona boji	23,4	24,9	25,8	22,5	16,1	13,5	14,3	14,3	12,5	16,0
Aksiz solig‘i	17,1	17,3	17,2	14,5	4,6	4,6	3,7	0,9	0,7	0,1
Bojxona yig‘imlari va boshqa to‘lovlar	3,4	3,3	2,9	2,6	4,5	3,4	2,2	2,6	2,7	3,9
<b>Jami</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>

O‘zbekiston Respublikasi tashqi savdosida 2014-2023-yillarda bojxona to‘loviga tortilgan va tortilmagan import tarkibini o‘zgarishi dinamikasini tahlil qiladigan bo‘lsak, bojxona to‘loviga tortilgan import qiymati 5,8 mlrd. AQSH dollaridan 27,5 mlrd. AQSH dollariga ko‘tarilgan, ya’ni 4,7 barobarga ortgan. O‘z navbatida, bojxona to‘loviga tortilmagan import qiymati 7,1 mlrd. AQSH dollaridan 9,2 mlrd. AQSH dollarigacha, ya’ni 29,5 %ga oshgan. Bu davrda jami import 2014-yilda 12,9 mlrd. AQSH dollarini tashkil etib, 2023-yilda esa 36,7 mlrd. AQSH dollariga yetgan, ya’ni 2,8 barobarga ortgan.

<sup>12</sup> Bojxona qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

<sup>13</sup> Bojxona qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

**O‘zbekiston Respublikasi tashqi savdosida 2014-2022-yillarda bojxona to‘loviga tortilgan va tortilmagan import tarkibini o‘zgarishi dinamikasi, mlrd. AQSH dollarida<sup>14</sup>**

Ko‘rsatkichlar	Yillar									
	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023
Jami import	12,9	11,5	11,3	12,0	17,3	21,8	19,9	23,7	28,2	36,7
To‘lovga tortilgan import	5,8	5,0	4,7	4,2	4,3	7,1	11,6	16,4	20,1	27,5
To‘lovga tortilmagan import	7,1	6,5	6,6	7,8	13,0	14,7	8,3	7,3	8,1	9,2

O‘zbekiston Respublikasi bojxona organlari tomonidan jami undirilgan bojxona to‘lovlari tarkibida 2021-2023-yillar choraklari bo‘yicha tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, 1-chorakda 17-20 %, 2-chorakda 18-26 %, 3-chorakda 22-26 %, 4-chorakda 27-30 %ni o‘tkazilgan bojxona to‘lovlari tashkil etgan. Bu esa bojxona to‘lovlarini undirishning mavsumiylik xarakterga ega ekanligini ko‘rsatadi.

2023-yilda O‘zbekiston Respublikasida TIF qatnashchilariga bojxona to‘lovlaridan berilayotgan imtiyozlar 57,4 trln. so‘mni, 2014-yilda 11,7 trln. so‘mni tashkil etgan. Bu ko‘rsatkich yuqoridagi yillarda 5 martaga oshgan. Yoki o‘tgan 10 yilda 45,7 trln. so‘mga ko‘paygan. Yuqoridagi yillarda jami bojxona to‘lovlaridan berilgan imtiyozlar miqdorlarini o‘rtacha yillik valyuta kursi bo‘yicha AQSH dollariga nisbatan taqqoslanganda, bu ko‘rsatkich 2 barobarga oshganligini ko‘rishimiz mumkin. Ya‘ni, 2014-yilda 5089,19 mln. AQSH dollarini, 2023-yilga kelib esa 4869,24 mln. AQSH dollarini tashkil etgan. Bu yillarda 4,4 % ga kamaygan.



**5- rasm. O‘zbekiston Respublikasi bojxona organlari tomonidan bojxona to‘lovlaridan berilgan imtiyozlar miqdori, mlrd. so‘mda<sup>15</sup>**

2023-yilda bojxona to‘lovlaridan berilgan imtiyozlarning 44,1 %i O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Qarorlari va Farmonlari asosida, 35,8 %i O‘zbekiston Respublikasi Soliq va Bojxona kodeksiga binoan, 11,1 %i Xalqaro kelishuvlar asosida, 8,2 %i O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qaror va farmoyishlari asosida berilgan.

<sup>14</sup> Bojxona qo‘mitasi ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

<sup>15</sup> Bojxona qo‘mitasi ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Amalga oshirgan tadqiqot va tahlillarimiz natijalari bojxona sohasida bojxona to'lovlaridan berilayotgan imtiyozlarni qo'llashda muayyan kamchiliklarning mavjud ekanligini aniqlash imkonini berdi. Ularning ayrimlari, bizning fikrimizcha, quyidagilardan iborat: a) tovarlarni TIF TN kod raqamlarini imtiyoz berilayotgan tovarlar kod raqamlariga o'zgartirish orqali rasmiylashtirish; b) imtiyoz berilgan tovarlardan maqsadli foydalanmay tijorat maqsadida foydalanish; v) imtiyoz berilgan tovarlarni rasmiylashtirishda hujjatlarni soxtalashtirish; g) imtiyoz berilgan tovarlar narxini sun'iy ravishda oshirish; d) bojxona to'lovlaridan beriladigan imtiyozlarni Bojxona kodeksi 296-moddasining talablari, ya'ni belgilangan qonun hujjatlari talablari asosida berilmaslik va boshqalar.

Bojxona to'lovlari beriladigan imtiyozlarni ko'payishi mamlakat tashqi savdo aylanmasining ortishiga, jumladan, import tovarlarining oshishiga olib keladi. Aksincha, uning kamayishi, import tovarlarini qisqartirib, davlat budjetiga bojxona to'lovlarining tushishini ko'paytiradi.

Tadqiqot davomida, jismoniy shaxslar tomonidan tovar olib kelinganda, ulardan bojxona to'lovlarini undirishga ko'p vaqt ketishi, bu esa tirbandliklarni keltirib chiqarishi o'rganildi. Bu muammoni bartaraf etish uchun chegara bojxona postlari tomonidan vaqtincha saqlaganlik uchun bojxona xizmatini amalga oshirilganligi uchun bojxona yig'imi joriy etish taklifi berildi.

Muallif fikricha, kelgusida xorijiy davlatlarning tajribasidan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasida import bojxona boji stavkalari tarkibida nol foizli stavkalarni 39,3 % dan 20,0 % ga qisqartirish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, bojxona to'lovlaridan beriladigan imtiyozlarni kamaytirish, uning o'rniga tarif kvotalarini qo'llash, bojxona to'lovlaridan imtiyozlar berishni xususiy-manzilli mexanizmidan umumiy – tovarlarga nisbatan qo'llash mexanizmini joriy etish, bojxona to'lovlaridan beriladigan imtiyozlar samaradorlik ko'rsatkichlarini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.


Dissertatsiyaning **“Bojxona to'lovlari miqdoriga ta'sir etuvchi asosiy omillarning turkumlanishi va ularning ekonometrik tahlili”** nomli uchinchi bobida, bojxona to'lovlari miqdoriga ta'sir etuvchi asosiy omillar va ularni turkumlanishi, tovarlarning bojxona qiymati va uni aniqlashni takomillashtirish, bojxona to'lovlari miqdoriga ta'sir etuvchi omillarning ekonometrik tahlili, bojxona to'lovlari miqdorini ekonometrik model asosida prognozlashni baholash yo'nalishlari bo'yicha tadqiqot ishlari olib borilgan.

Jumladan, omillarni bojxona organlarining faoliyatiga bog'liq yoki bog'liq emasligiga qarab ikki guruhga: ichki va tashqi omillarga ajratish mumkin. Tashqi omillar bojxona to'lovlarining yig'iluvchanligiga eng ko'p ta'sir qiladi. Ichki omillar bojxona organlari tomonidan boshqariladigan omillar bo'lib, bojxona to'lovlarni undirishning to'liqligini ta'minlashga xizmat qiladi. Shuningdek, bojxona to'lovlariga ta'sir etuvchi omillarni bojxona rejimlari bo'yicha, bojxona to'lovlari turlariga ta'sir etuvchi omillarni umumiy va individual ta'sir etuvchi omillarga bo'lib turkumlash maqsadga muvofiqdir.

Olib borilgan ilmiy tahlillar natijasida, bojxona to'lovlariga ta'sir etuvchi omillarni quyidagi mezonlar asosida turkumlarga bo'lish mumkin. Ularni, bojxona to'lovlariga ta'sir etish bo'yicha bevosita va bilvosita omillarga, bojxona organi




faoliyatiga bog‘liqligi bo‘yicha tashqi va ichki omillarga, bojxona to‘lovlari turlariga ta’siri bo‘yicha umumiy va xususiy omillarga, bojxona rejimlari bo‘yicha bojxona to‘lovlari qo‘llanmaydigan bojxona rejimlari va bojxona to‘lovlari qo‘llanadigan bojxona rejimlariga ajratildi.



**6-rasm. Bojxona to‘lovlari ta’sir etuvchi omillarning turkumlanishi sxemasi<sup>16</sup>**

Tovarlarni bojxona qiymati bojxona to‘lovlari undirish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Amaldagi bojxona boji stavkalarining 86,2 %i advalor stavkalarni tashkil etadi.



**7-rasm. O‘zbekiston Respublikasida 2021-2023-yillarda bojxona rasmiylashtiruv jarayonida qo‘llanilgan bojxona qiymatini aniqlash usullarining BYUDlar kesimida<sup>17</sup>**

<sup>16</sup> Muallif ishlanmasi

<sup>17</sup> Bojxona qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Tahlillarga nazar tashlaydigan bo‘lsak, bojxona qiymatini aniqlashning asosiy usuli deb hisoblangan birinchi usul barcha aniqlangan usullarning deyarli yarmini (2021-yil– 33,69 %, 2022-yil – 36,91 % va 2023-yil – 61,89 %) tashkil etgan va birinchi usulning salmog‘i ko‘payib bormoqda. Oxirgi yillarda barcha aniqlangan usullarda oltinchi usul kamayib bormoqda (2021-yil – 59,15 %, 2022-yil – 53,23 % va 2023-yil – 16,73 %).

Tovarlarning bojxona qiymatini aniqlashda narxlar byulleteni ishlab chiqilib, yillar davomida ushbu narxlar o‘zgarmay kelinayotgan edi. Bu esa tovarlarning bojxona to‘lovlarini hisoblab chiqish asosi bo‘lgan, tovarning bojxona qiymatining o‘zgarishini, shuningdek, dunyoda savdoni globallasuvi sharoitida tovar narxlarini o‘zgarishini o‘zida aks ettirmadi. Buning uchun, nazarimizda narx ma’lumotlar byulletenini shakllantirishni to‘liq bekor qilish orqali, uning o‘rniga bojxona qiymatining ehtimoliy diapazonini avtomatik hisoblab chiqadigan axborot tizimini joriy etish tovarlar bojxona qiymatini aniqlash samaradorligini oshiradi. Bu esa tovarlarni bojxona qiymati indeksini 2020-2023-yillarda 0,65 AQSH dollaridan 0,97 AQSH dollariga oshishini ta’minladi va bojxona to‘lovlarining asosli ko‘payishiga olib keldi.

Shuningdek, tadqiqotda O‘zbekiston Respublikasi hududida amalga oshirilgan xarajatlarni tasdiqlovchi hujjatlar bo‘lmagan taqdirda “Qiymatlarni chegirib tashlash usuli, 4-usul” asosida tovarlarning bojxona qiymatini aniqlashning matematik modellashtirish jarayoni ko‘rib chiqilib, unda bojxona hududida amalga oshirilgan xarajatlarning ko‘payishi bojxona qiymatini kamaytirishga olib kelinishi isbotlandi.

O‘zbekistonda davlat budjeti daromadlarini shakllantirishda bojxona to‘lovlarini undirish mexanizmi va unga ta’sirini ishlab chiqishda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi ([www.stat.uz](http://www.stat.uz)), O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Banki ([www.cbu.uz](http://www.cbu.uz)) hamda O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo‘mitasi ma’lumotlarining 2013-yildan 2022-yilgacha jami 40 ta choraklik ko‘rsatkichlaridan foydalanildi.

Undiriladigan bojxona to‘lovlariga (y) ta’sir etuvchi omillar sifatida soliq solinadigan import hajmi ( $x_1$ ), valyuta kursi ( $x_2$ ) hamda importning umumiy hajmi ( $x_3$ ) tanlab olindi.

Tadqiqotga ko‘ra ARDL modelidan foydalangan xolda ekonometrik model ishlab chiqildi. Quyida ARDL model asosida ekonometrik model keltirilgan.

$$\Delta y_{it} = \beta_0 + \beta_1 \sum_{p=1}^n \Delta y_{i,t-p} + \beta_2 \sum_{p=1}^n \Delta x_{1i,t-p} + \beta_3 \sum_{p=1}^n \Delta x_{2i,t-p} + \beta_4 \sum_{p=1}^n \Delta x_{3i,t-p} + \gamma_1 Y_{i,t-p} + \gamma_2 x_{1i,t-1} + \gamma_3 x_{2i,t-1} + \gamma_4 x_{3i,t-1} + \varepsilon_{i,t} \quad (2)$$

Milliy iqtisodiyotda soliq solinadigan import hajmining 1 %ga ortishi natijasida undiriladigan bojxona to‘lovlarining 0,40 %ga ortishiga olib keladi. Milliy iqtisodiyotda valyuta kursining 1,0 %ga ortishi natijasida undiriladigan bojxona to‘lovlarining 0,21 %ga ortishiga olib keladi. Shuningdek, milliy iqtisodiyotda import umumiy hajmining 1,0 %ga ortishi natijasida undiriladigan bojxona to‘lovlarining 0,4 %ga ortishiga erishiladi.

ARDL(1,0,0,0) modeli regression tenglama ko'rsatkichlari<sup>18</sup>

ARDL(1,0,0,0) regression  
Sample: 2013q2 - 2022q3

Number of obs = 38  
R-squared = 0.8650  
Adj R-squared = 0.8487  
Root MSE = 0.0802

Log likelihood = 44.639032

<i>D.y</i>	<i>Coef.</i>	<i>Std.Err.</i>	<i>t</i>	<i>P&gt;t</i>	<i>[95%Conf. Interval]</i>	
<b>ADJ</b>						
<i>y</i>						
<i>L1</i>	-1.202	0.108	-11.090	0.000	-1.423 -0.982 ***	
<b>LR</b>						
<i>x<sub>1</sub></i>	0.409	0.090	4.550	0.000	0.226 0.592 ***	
<i>x<sub>2</sub></i>	0.217	0.086	2.520	0.017	0.042 0.392 ***	
<i>x<sub>3</sub></i>	0.401	0.103	3.910	0.000	0.192 0.610 ***	
<b>SR</b>						
<i>_cons</i>	-0.123	1.046	-0.120	0.907	-2.251 2.006	

Biz kelgusi to'rt yil uchun O'zbekiston Respublikasida bojxona to'lovlari miqdorini *ARIMA* modeli asosida prognoz ko'rsatkichlarini ishlab chiqdik.

Iqtisodiy jarayonlarni prognozlashda *ARIMA* modeli vaqtli qator ma'lumotlarini samarali modellashtirishda va prognozlash qobiliyati tufayli muhim statistik usuli sifatida keng qo'llanilgan.

Ekonometrik prognoz bo'yicha natijaviy omil quyidagicha ifodalangan. *customs\_fees* – bojxona to'lovlari miqdori (*Bog'liq o'zgaruvchi*).

Modelni prognoz qilishda *ARIMA* optimal invariant modellarini tanlashda *ARIMA*(0,1,1), *ARIMA*(0,1,2), *ARIMA*(1,1,1), *ARIMA*(1,1,0) *ARIMA*(2,0,1) va *ARIMA*(1,1,2) ko'rinishidagi modellardan qo'llanildi. Ushbu modellar orasidan eng yaxshi natijaga ega *ARIMA*(1,1,2) modeli tanlab olingan (6-jadvalga qarang). *ARIMA* modeli regressiyason natijasiga asoslanib, model uchun ekonometrik tenglama quyida keltirilgan.

$$D.customs\_fees_t = \beta_0 + \phi_1 D.customs\_fees_{t-1} + \epsilon_t + \theta_1 \epsilon_{t-1} + \theta_2 \epsilon_{t-2} \quad (3)$$

O'zbekiston Respublikasida bojxona to'lovlari miqdori bo'yicha *ARIMA* (1,1,2) modeli ekonometrik tenglama ko'rsatkichlari<sup>19</sup>

<i>D.customs_fees</i>	<i>Coef.</i>	<i>St.Err.</i>	<i>t-value</i>	<i>p-value</i>	<i>[95% Conf Interval]</i>	<i>Sig</i>
<i>Constant</i>	4254.3	457172.22	0.91	.365	-481786.78 1310295.4	
<i>L</i>	.954	.104	9.16	0	.75 1.158	***
<i>L</i>	-1.662	.086	-19.30	0	-1.831 -1.494	***
<i>L2</i>	.836	.073	11.50	0	.693 .978	***
<i>Constant</i>	2595.31	56095.659	10.21	0	2649.84 2540.78	***
<i>Mean dependent var</i>		2015.187	SD dependent var		6838.052	
<i>Number of obs</i>		39	Chi-square		382.161	
<i>Prob &gt; chi2</i>		.	Akaike crit. (AIC)		1157.782	

\*\*\*  $p < .01$ , \*\*  $p < .05$ , \*  $p < .1$

<sup>18</sup> Muallif tomonidan mustaqil ishlab chiqildi

<sup>19</sup> Muallif tomonidan mustaqil ishlab chiqildi

6-jadvalga ko‘ra ARIMA(1,1,2) modeli quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ldi.

$$D.custom\_fees_t = 4254.3 + 0.95D.customs\_fees_{t-1} + \epsilon_t - 1.66\epsilon_{t-1} + 0.83\epsilon_{t-2} \quad (2)$$

Tadqiqot bo‘yicha stata dasturidan foydalangan holda ARIMA(1,1,2) modeli bo‘yicha tashqi savdo amaliyotlarini yanada rivojlantirishda hamda budget daromalarini oshirishda milliy iqtisodiyotda bojxona to‘lovlari miqdorining 2024-yildan 2027-yilga tasodifiy omillarni hisobga olmagan holda prognoz ko‘rsatkichi ishlab chiqildi (7-jadvalga qarang)


7-jadval

**O‘zbekiston Respublikasida bojxona to‘lovlari miqdorining 2024-2027-yillarga prognoz ko‘rsatkichlari (mln. so‘mda)<sup>20</sup>**

Yillar	Pessimistik prognoz	Optimistik prognoz	Prognoz
2024	62 534 339	79 353 479	68 336 443
2025	67 740 327	83 328 767	74 421 767
2026	75 912 274	86 370 819	79 491 819
2027	81 415 263	91 678 541	86 526 541

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, ARIMA (1,1,2) modeli asosida Milliy iqtisodiyotda bojxona to‘lovlari miqdori 2024-2027-yillarda tasodifiy ekzogen va endogen omillarini hisobga olmagan holda 2024-yilda 68 336 443 mln. so‘m, 2025-yilda 74 421 767 mln. so‘m, 2026-yilda 79 491 819 mln. so‘m hamda mos ravishda 2027-yilda 86 526 541 mln. so‘mga yetishi prognoz qilindi.

Tadqiqot bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo‘mitasi tomonidan taqdim etilgan Milliy iqtisodiyotda bojxona to‘lovlari miqdori 2010-2023-yillar hamda 2024-2027-yillarda bojxona to‘lovlari miqdori va prognoz grafiklar tasviri keltirilgan (8-rasmga qarang).



**8-rasm. 2010-2023-yillar davomida bog‘liq o‘zgaruvchining hamda 2024-2027-yillar uchun prognoz grafigi<sup>21</sup>**

Dissertatsiyaning “Bojxona to‘lovlarini undirishda axborot dasturlaridan foydalanishni takomillashtirish” nomli to‘rtinchi bobida, bojxona to‘lovlarini

<sup>20</sup> Muallif tomonidan mustaqil ishlab chiqildi

<sup>21</sup> Muallif tomonidan mustaqil ishlab chiqildi

undirishda Bojxona qo‘mitasi yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimi dasturlarining roli va ahamiyati, bojxona to‘lovlarining yig‘iluvchanligini ta‘minlash jarayonida foydalanilayotgan elektron dasturlar va mobil ilovalarni takomillashtirish choralari bo‘yicha tadqiqot ishlari olib borilgan.

Bugungi kunda bojxona organlarida 79 ta axborot tizimlaridan: 35 ta Yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimi, 44 ta interaktiv xizmatlar tashkil qiladi. Shuningdek, 30 ta vazirlik, 32 ta avia kompaniyalar va 9 ta davlatlar bilan ma‘lumot almashinuvi yo‘lga qo‘yilgan hamda 9 ta mobil ilovalardan foydalanib kelinmoqda. Bojxona kirim orderi avtomatlashtirilgan axborot tizimidan foydalanishda, bojxona amaliyotida bojxona rasmiylashtiruv bilan bog‘liq bo‘lmagan bojxona yig‘imlarini undirish o‘rganilganda, ularni undirishdagi muammolardan kelib chiqib, dastlabki qaror qabul qilganlik uchun, egasi bojxona organi bo‘lgan bojxona omborida yoki chegara bojxona postida vaqtincha tovarlarni saqlash uchun, transport vositasini bojxona kuzatib borishi uchun, bojxona nazorati ostida tashilayotgan tovar va transport vositalari uchun belgilangan yetkazib berish muddati o‘tkazib yuborilganlik uchun, belgilangan muddat tugagandan so‘ng vaqtinchalik olib kirilgan avtotransport vositasini qaytarib olib chiqib ketilishini yoki tegishli bojxona rejimiga rasmiylashtirilishini ta‘minlamaganlik uchun bojxona yig‘imlarini undirishda soddalashtirilgan bojxona kirim orderi shakli ishlab chiqildi. Bojxona rasmiylashtiruv bilan bog‘liq bo‘lmagan bojxona yig‘imlarini undirishda bojxona kirim orderining soddalashtirilgan shaklini qo‘llash, bojxona xodimi va tadbirkorni vaqtini tejab, bu yig‘imlarni undirishni va ularni hisobini yuritishni takomillashtirdi.


<b>1. BKO ro‘yxat raqami</b>					
<b>2. To‘lovchi/Moliya va bank ma‘lumotlari</b>					
<b>3. Taqdim etiladigan hujjatlar/qo‘shimcha ma‘lumotlar</b>					
<b>4.Bojxona to‘lovlari hisobi</b>					
To‘lov turi	Hisoblash asosi	Stavka	Summa	To‘lov usuli	Hisob-kitob tafsiloti
<b>5.Bojxona organining belgisi</b>			<b>6.To‘lovchining imzosi</b>		
<div style="border: 1px solid black; padding: 5px; width: fit-content; margin: 0 auto;">                     QR-kod (matrik shtrixli kod)                 </div>					

**9-rasm. Soddalashtirilgan bojxona kirim orderi shakli<sup>22</sup>**

<sup>22</sup> O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2024-yil 4-iyulda ro‘yxatdan o‘tkazilgan 3525-son “Bojxona kirim orderining shakli va uni to‘ldirish qoidalari” haqida yo‘riqnomasi

Bojxona organlari faoliyatini takomillashtirishning xalqaro istiqbolli chora-tadbirlardan biri bu xavfni boshqarish va tahlil qilish usullaridan samarali foydalanishdir.

Quyidagi diagramma xavfni boshqarish tizimi qo'llanilishida Jahon bojxona tashkilotining tajribasiga asoslanib, bojxona organlarida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavf va uning darajalarini eksport hamda import rejimida tahlili berilgan.



**10-rasm. Bojxona sohasida sodir bo'lish ehtimoli yuqori bo'lgan va xavfni boshqarish tizimi orqali aniqlashda asosiy e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan qoida buzilishlari (%da)<sup>23</sup>**

Jahonda va O'zbekiston Respublikasi bojxona organlarida eksport-import rejimida bojxona qiymatining noto'g'ri ko'rsatilishi tashqi iqtisodiy faoliyat qatnashchilari o'rtasida sodir etish ehtimoli yuqori bo'lgan holat hisoblanadi. Bundan kelib chiqadiki, xavfni boshqarish tizimida asosiy e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan yo'nalishga aylanishi kerak bo'ladi.

Bugungi kunda davlat budjetiga o'tkazilishi lozim bo'lgan bojxona to'lovlarini hisoblash va elektron g'azna memorial orderlarini yaratish inson omiliga bog'liq bo'lib, uni amalga oshirishga ko'p vaqt sarflanmoqda. Bojxona to'lovlarini davlat budjetiga o'tkazish jarayonini takomillashtirish bo'yicha davlat budjetiga o'tkazilishi lozim bo'lgan bojxona to'lovlarini turlari bo'yicha hisoblash va elektron g'azna memorial orderlarini yaratishni Bojxona qo'mitasi yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimi elektron dasturlari tomonidan amalga oshirilishi taklifi kiritiladi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat subyektlariga bojxona to'lovlarini to'g'ri hisoblashda telegram kanali uchun mobil ilovalar katta rol o'ynaydi. Yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan avtotransport vositalari va mototsikllarni hamda transport vositalari dvigatellarini chetdan O'zbekiston Respublikasi bojxona hududiga olib kelishda to'lanishi lozim bo'lgan bojxona to'lovlariga doir "AutoCalculator Bot" telegram kanali uchun bot ilmiy-tadqiqot ishi doirasida yaratildi.

<sup>23</sup> Risk management in Customs procedures // UNCTAD Trust Fund on Trade Facilit. Negot. Technical Note, 2008



Tashqi iqtisodiy faoliyat qatnashchilari “AutoCalculator Bot” telegram-bot orqali avtotransport vositalaridan bojxona to‘lovlarini undirishning tartib-taomillarini va to‘lanishi lozim bo‘lgan bojxona to‘lovlarini miqdorini oldindan bilish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu esa tashqi iqtisodiy faoliyat subyektlarining pul mablag‘larini sarflanishini oldindan rejalashtirish imkoniyatini yaratib, tovarning bojxona rasmiylashtiruviga ketadigan vaqtini va sarf-xarajatlarini tejashga olib keladi. Ilmiy tadqiqot doirasida jismoniy shaxslardan bojxona to‘lovlarini undirish mexanizmini takomillashtirish maqsadida “infoCustomsUzBot” telegram-boti ilmiy ishlanma yaratildi. Ushbu bot jismoniy shaxslar bojxona chegarasidan o‘tayotganda to‘lanishi lozim bo‘lgan bojxona to‘lovlarini oldindan hisoblash imkonini beradi.

Dissertatsiyaning **“O‘zbekiston Respublikasida bojxona to‘lovlarini undirishni takomillashtirish yo‘nalishlari”** nomli beshinchi bobida, rivojlangan davlatlarda bojxona to‘lovlarini undirish tajribalari va ulardan xalqaro iqtisodiy integratsiya jarayonlarida foydalanish imkoniyatlari, bojxona to‘lovlaridan qarzdorlikning kelib chiqish sabablari va ularni oldini olish hamda undirish choralari, bojxona to‘lovlarini qo‘llash va undirish mexanizmini takomillashtirish istiqbollari tadqiq qilingan. Chet davlatlarda ichki bozorni himoya qilish va mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida import boj tarifi shakllanishi quyidagi asosiy prinsiplarga asoslanadi:

- Tarif eskalatsiyasi prinsipi;
- Samarali tarifga asoslangan prinsip.

Rivojlangan davlatlarda import bojxona boji stavkalarini belgilashda tarif eskalatsiyasi asosida, ya’ni tovarning qayta ishlanganlik darajasiga qarab stavkalarni belgilash mexanizmi joriy etilgan.

## 8-jadval

### Rivojlangan davlatlarda xomashyo, yarim tayyor va tayyor mahsulotlarga qo‘llaniladigan tarif eskalatsiyasi<sup>24</sup>

Mamlakatlar	Xomashyo tovarlariga import bojxona bojining o‘rtacha arifmetik qiymati, % da	Yarim tayyor mahsulotlarga import bojxona bojining o‘rtacha arifmetik qiymati, % da	Tayyor mahsulotlarga import bojxona bojining o‘rtacha arifmetik qiymati, % da
AQSH	1,8	6,1	7,0
Kanada	2,6	6,6	8,1
YEI	1,6	6,2	7,0
Finlyandiya	0,5	11,7	12,0
Avstriya	1,9	7,3	9,1
Norvegiya	0,9	5,4	7,8
Shvetsiya	0,4	5,1	5,1
Shvetsariya	1,5	2,8	3,0
Yaponiya	1,4	6,3	6,4

<sup>24</sup> Manba: <https://studfiles.net>

Samarali tarif stavkasi - import tarifining mahsulotni qayta ishlash jarayonida uning tannarxini oshirishga ta'sir qilish darajasini tavsiflovchi va tayyor mahsulot hamda import qilinadigan xomashyo va butlovchi qismlarga import bojlari stavkalari darajasidagi farqqa bog'liq bo'lgan qiymat va ularning yakuniy mahsulot tannarxidagi ulushi tushunilishi ishda ilgari surildi. Quyida tekstil mahsulotlariga samarali bojxona bojini hisoblash tartibini ko'rib chiqamiz.

## 9-jadval

### Tekstil mahsulotlariga boj stavkalari va ushbu mahsulotlarni tayyor mahsulot tarkibidagi ulushi<sup>25</sup>

Tekstil mahsulotlari	Boj stavkalari, %da	Tayyor mahsulot tarkibidagi ulushi %da
Paxta xom ashyosi	0	30
Gazlama	12	65
Kiyim	25	

$$Q1=(25-0,3*0)/(1-0,3)=25/0,7=35,71 \ %;$$

$$Q2=(25-0,65*12)/(1-0,65)=17,2/0,35=49,12 \ %;$$

$$Q3=(12-0,46*0)/(1-0,46)=12/0,54=22,22 \ %;$$

Demak,  $35,71 > 25 \ %$

$49,12 > 25 \ %$

$22,22 < 25 \ %$

$$A=100*0,3/0,65=46,1 \ %$$

Samarali bojxona boji stavkasi, ya'ni tayyor mahsulot kiyimga 46,1 %ni tashkil etadi.

O'zbekiston va Xitoy Xalq Respublikasida bojxona to'lovlarini undirishning ayrim jihatlarini solishtirilganda quyidagilar ma'lum bo'ldi: Bojxona to'lovlarini to'lash muddati, bojxona organlari bilan to'lovga oid bahs yuzaga kelishi, ortiqcha to'langan pul mablag'larini qaytarish muddati, har bir kun uchun to'lanmagan summaning penyasi miqdori mezonlari har xil ekanligi va bojxona to'lovlarini qo'shimcha hisoblashning muddati bir xil ekanligi aniqlandi.

O'zbekiston, Singapur va Janubiy Koreya davlatlari bojxona to'lovlarini undirishning ayrim jihatlari solishtirilganda quyidagilar ma'lum bo'ldi: O'zbekiston va Janubiy Koreya davlatlari bojxona to'lovlari deyarli bir xil ekanligi, bojxona to'lovlarining undirilmaydigan va voz kechilishi mumkin bo'lgan miqdori, qasddan bo'yin tovlaganligidan qat'iy nazar muddatli cheklov inobatga olinishi mezonlari uch davlatda har xil ekanligi aniqlandi. Bojxona to'lovlarini qo'shimcha hisoblashning muddati mezonlari Singapur va Janubiy Koreya davlatlarida bir xil ekanligi o'rganildi.

Singapur tajribasidan kelib chiqib, bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarga qat'iy rioya etilishi lozimligi va noqonuniy harakatlar uchun jazo muqarrarligi prinsipidan kelib chiqqan holda, agar tadbirkorlik subyekting bojxona to'lovlaridan qasddan bo'yin tovlashga oid harakatlari oqibatida bojxona to'lovlari

<sup>25</sup> Muallif tomonidan tuzilgan.

kam undirilgan yoki undirilmaganligi aniqlansa, bojxona to'lovlarini qo'shimcha hisoblash tovarlarning bojxona nazorati ostida bo'lishi tugagan paytdan e'tiboran besh yil ichida amalga oshirilishi mumkinligi yoki muddatli cheklov qo'llanilmasligi to'g'risidagi normani kiritish taklif etiladi.

Janubiy Koreya bojxona qonuni 19-moddasiga muvofiq hisoblangan bojxona to'lovlarini (shu jumladan, qo'shimcha hisoblangan) to'lash bo'yicha solidar javobgarlik tartibi belgilangan. Tashkilot bo'linishi, qayta tashkil etilishi sababli tugatilgan, yangi tashkil etilgan kabi holatlarda yangi tashkilot yoki bo'lingan tashkilot tomonlari bojxona to'lovlarini to'lash uchun solidar javobgar hisoblanadi. Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida bojxona to'lovlarini to'lashda solidar javobgarlik instituti mavjud emas.

Rivojlangan mamlakatlarda bojxona to'lovlari, soliqlar va yig'implarni to'lash uchun javobgarlikni nafaqat import qiluvchiga, balki bojxona hududiga tovarlarni olib kirish bilan bog'liq tashqi iqtisodiy faoliyatning boshqa ishtirokchilariga ham yuklaydi.

## 10-jadval

### O'zbekiston Respublikasi, Singapur va Janubiy Koreya davlatlarining bojxona to'lovlarini undirishning ayrim jihatlarini solishtirma jadvali<sup>26</sup>

Ayrim mezonlar	Singapur tajribasi <sup>27</sup>	O'zbekiston tajribasi <sup>28</sup>	Janubiy Koreya tajribasi <sup>29</sup>
Bojxona to'lovlarining turlari	1.Bojxona boji 2.Aksiz solig'i 3.Tovar va xizmatlar uchun soliq 4.Avtotransport uchun maxsus soliq	1.Bojxona boji 2.Aksiz solig'i 3.Qo'shilgan qiymat solig'i 4.Bojxona yig'implari va boshqa to'lovlar	1.Bojxona boji 2.Aksiz solig'i 3.Qo'shilgan qiymat solig'i 4.Boshqa to'lovlar
Bojxona to'lovlarining undirilmaydigan va voz kechilishi mumkin bo'lgan miqdori	20 AQSH dollaridan yoki Vazirning buyrug'i bilan belgilanishi mumkin bo'lgan boshqa summadan oshmasligi lozim	Bazaviy hisoblash miqdorining 20 % igacha etib belgilangan. (5,4 AQSH dollariga teng)	10 000 von (7,5 dollaridan oshmasligi lozim)
Bojxona to'lovlarini qo'shimcha hisoblashning muddati	5 yil	3 yil	5 yil
Ortiqcha to'langan pul mablag'larini qaytarish muddati	5 yil	3 yil	5 yil
Qasddan bo'yin tovlaganligidan qat'iy nazar muddatli cheklov inobatga olinishi	Qasddan bo'yin tovlaganligi isbotlansa muddatli cheklov qo'llanilmaydi va to'lovlar undirib olinadi	Qasddan bo'yin tovlaganligidan qat'iy nazar muddatli cheklov inobatga olinadi.	Qasddan bo'yin tovlaganligi isbotlansa, muddat 10 yil etib belgilanadi.

<sup>26</sup> Muallif ishlanmasi

<sup>27</sup> <https://www.customs.gov.sg/businesses/valuation-duties-taxes-and-fees/duties-and-dutiable-goods/>

<sup>28</sup> Ўзбекистон Республикасининг Боjхона кодекси. 2016 й. <https://lex.uz/docs/2876354>

<sup>29</sup> <https://www.law.go.kr/LSW/eng/engLsSc.do?menuId=2&query=CUSTOMS%20ACT#liBgcolor4>

O‘zbekiston Respublikasi va ayrim Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi mamlakatlari Davlat budjeti daromadlarida bojxona to‘lovlari ulushining 2017-yil bo‘yicha solishtirma tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, undirilgan bojxona to‘lovlari Rossiya va Belorusiya davlatlari Davlat budjeti daromadlarida 30,0 %dan 40,0 % gachani va asosiy bojxona to‘lovlari tovarlarni eksport qilishdan tushgan bo‘lsa, shuningdek, Qirg‘iziston Respublikasida 2017-yilda Davlat budjeti daromadlar qismidagi ulushi 25,5 %ni tashkil etgan. Bu ko‘rsatkich O‘zbekiston va Ozarbayjon Respublikalarida 15,0-16,0 %ni tashkil etgan hamda asosiy bojxona to‘lovlari tovarlarni import qilishdan undirilgan.

### 11-jadval

#### O‘zbekiston Respublikasi va ayrim Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi mamlakatlari Davlat budjeti daromadlarida bojxona to‘lovlarining ulushi (2017-yil)<sup>30</sup>

Davlatlar	Davlat budjeti daromadlaridagi ulushi, %da
Rossiya	30,3
Belorusiya	38,7
Ozarbayjon	15,8
Qirg‘iziston	25,4
O‘zbekiston	15,3

Tovarlar erkin muomalaga chiqarilgandan keyin bojxona to‘lovlaridan qarzdorlikni kelib chiqish yo‘nalishlarini 2019-2023-yillar kesimidagi tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, yuqoridagi yillarda tovarlarning bojxona qiymatini noto‘g‘ri belgilashda qo‘shimcha hisoblangan qarzdorlik 22,02 %ga, preferensiyalarni noto‘g‘ri berish 4,58 %ga, boshqa holatlar 4,55 %ga ko‘paygan va aksincha imtiyozlarni noto‘g‘ri qo‘llash 16,1 %ga, TIF TN kod raqamini noto‘g‘ri aniqlash 15,35 %ga kamaygan.

### 12-jadval

#### Bojxona organlarida qo‘shimcha hisoblangan bojxona to‘lovlarini kelib chiqish sabablari tarkibi (% da)<sup>31</sup>

Kelib chiqish yo‘nalishlari	Yillar				
	2019	2020	2021	2022	2023
Imtiyozlar noto‘g‘ri qo‘llanilishi	56,7	63,4	25,0	44,1	40,60
Bojxona qiymati noto‘g‘ri belgilanishi	11,7	16,4	45,5	37,4	33,72
Tovar kelib chiqish sertifikatini bo‘yicha	5,4	7,6	8,0	4,4	9,98
TIF TN kodi noto‘g‘ri belgilanishi	20,2	5,2	15,5	6,6	4,85
Boshqa holatlar	6,3	7,4	6,0	7,5	10,85
<b>Jami</b>	100,0	100,0	100,0	100,0	100


<sup>30</sup> Muallif tomonidan tuzilgan.

<sup>31</sup> Muallif tomonidan tuzilgan

Ayrim tashqi iqtisodiy faoliyat qatnashchilari va fuqarolar ko'p yillar davomida bojxona to'lovlari hisobotlarida qarzdor bo'lib kelmoqda. Bu esa bojxona to'lovlarini o'z vaqtida undirish jarayoniga to'sqinlik qilmoqda. Ularning sabablari o'rganilganda, fuqaro vafot etganligi, korxonalar bankrot bo'lganligi, xorijiy korxonalarining soliq to'lovchilar ro'yxatidan chiqarilganligi kabilar sabab bo'lgan. Yuqoridagi holatlar sababli bojxona to'lovlaridan vujudga kelgan qarzdorlik bojxona to'lovlaridan umidsiz qarzdorlik taklifi kiritiladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, bojxona to'lovlaridan qarzdorliklarni kamaytirish uchun bojxona to'lovlaridan qarzdorlikni undirish tartibi jamlangan me'yoriy hujjatni ishlab chiqish, tovarlar chiqarib yuborilgandan so'ng kamomad aniqlansa, axborot texnologiyalari orqali tadbirkorga xabarnoma jo'natish tizimini tashkil etish, javobgarlikni oshirish bu yo'nalishda katta samara beradi.

Olib borilgan ilmiy-tadqiqot natijalariga asosan, bojxona to'lovlarini undirish mexanizmi uch bosqichga bo'lindi. Bular, birinchi bosqich - bojxona to'lovlarini hisoblash, ikkinchi bosqich-hisoblangan bojxona to'lovlarini hududiy bojxona boshqarmaning g'azna shaxsiy hisob-varag'iga o'tkazish va uchinchi bosqich-hududiy bojxona boshqarmaning g'azna shaxsiy hisob-varag'iga o'tkazilgan bojxona to'lovlarini davlat byudjetiga o'tkazish hisoblanadi.




**11-rasm. Bojxona to'lovlarini undirish mexanizmi bosqichlari ketma-ketligi sxemasi<sup>32</sup>**

Har bir bosqichda bojxona to'lovlarini undirish bilan bog'liq vazifalar mavjud. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda tashqi iqtisodiy faoliyat qatnashchilari va bojxona organlari bevosita qatnashishadi. Shuningdek, bojxona to'lovlarini undirish jarayonida bojxona organlarining turli tuzilmalari qatnashadi va ularning bojxona to'lovlarini undirish mexanizmi jarayonlari turli bosqichlarida vazifalari turlichadir. Ilmiy-tadqiqot ishida ularning bojxona to'lovlarini undirish jarayonida qatnashishiga qarab, ularning vazifalari ilmiy asosda belgilandi. Bojxona

<sup>32</sup> Muallif tomonidan tuzilgan.

organlarida bojxona to'lovlarini undirish jarayoni bilan bevosita bog'liq bojxona organlarining tuzilmalariga tashqi iqtisodiy faoliyat, masofaviy elektron deklaratsiyalash postlari va hududiy bojxona boshqarmalarining bojxona to'lovlari bo'limlari kiradi.

Yuqoridagi ilmiy tahlillardan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasida bojxona to'lovlarini undirish mexanizmini takomillashtirishning ilmiy asoslangan kompleks chora-tadbirlar ketma-ketligi ishlab chiqildi:



**12-rasm. O'zbekiston Respublikasida bojxona to'lovlarini undirish mexanizmini takomillashtirishning ilmiy asoslangan kompleks chora-tadbirlari ketma-ketligi<sup>33</sup>**

Tadqiqotchi tomonidan Kiota Konvensiyasi talablari va bojxona to'lovlarini to'lashda halol tadbirkorlarni ko'paytirish maqsadida bojxona to'lovlarini vakolatli

<sup>33</sup> Muallif tomonidan tuzilgan.

iqtisodiy operatorlarga kechiktirib yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lash imkoniyati berilganda, ushbu muddat uchun foizlar hisoblamaslik taklifi berildi.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston Respublikasida bojxona to‘lovlarini undirish mexanizmini takomillashtirishning ilmiy asoslangan kompleks chora-tadbirlari asosida tashkil etish, bojxona to‘lovlarini undirish samaradorligini yanada oshiradi. Mamlakatimizda bojxona to‘lovlarini undirishni xalqaro standartlar va rivojlangan davlatlar darajasiga olib chiqadi.

## XULOSA

O‘zbekistonda bojxona to‘lovlarini undirish mexanizmini takomillashtirish bo‘yicha olib borilgan ilmiy izlanishlar natijasida quyidagi muhim xulosalar shakllantirildi va takliflar ishlab chiqildi:

1. Bojxona to‘lovlari bojxona chegarasi orqali tashqi iqtisodiy faoliyat subyektlari tomonidan tovarlar olib o‘tilganda, ulardan undiriladigan majburiy to‘lov bo‘lib, bojxona rasmiylashtiruvining asosiy shartidir. U tashqi savdoni samarali tarkibini ta‘minlash, ichki tovar ishlab chiqaruvchilarni chet elning nosog‘lom raqobatidan himoyalash va Davlat budjeti daromadlarini to‘ldirish funksiyalarini bajarib, mamlakat iqtisodiyotini barqaror rivojlanishiga ta‘sir etadi.

2. Bojxona to‘lovlarini undirish davlat budjetining daromadlar qismini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Olib borilgan empirik tadqiqotlar natijasida ma‘lum bo‘ldiki, bojxona to‘lovlarini undirish va davlat budjetining daromadlar qismiga o‘tkazish munosabatlarini to‘liq o‘z ichiga olgan yagona uslubiyot ishlab chiqilmagan. Bu esa, o‘z navbatida, amaliyotda har xil talqinlarni keltirib chiqarishga sabab bo‘lib, bojxona to‘lovlarini undirish bilan bog‘liq tartib qoidalar jamlangan me‘yoriy huquqiy hujjatni ishlab chiqishni taqozo etadi.

3. Bojxona to‘lovlari turlicha bo‘lganligi sababli ularni hisoblash va undirishning o‘ziga xos xususiyatlari mavjud. Shuningdek, bojxona to‘lovlarini hisoblashda turli omillar ta‘sir etadi. Shuning uchun, ushbu omillarni to‘liq o‘rganish talab etiladi. Olib borilgan ilmiy tadqiqot va amaliy tahlillar natijasida, bojxona to‘lovlariga ta‘sir etuvchi omillarni quyidagi mezonlar asosida turkumlarga bo‘lindi. Xususan, (a) bojxona to‘lovlariga ta‘sir etish bo‘yicha bevosita va bilvosita omillarga; (b) bojxona organi faoliyatiga bog‘liqligi bo‘yicha tashqi va ichki omillarga; (d) bojxona to‘lovlari turlariga ta‘siri bo‘yicha umumiy va xususiy omillarga; (e) bojxona rejimlari bo‘yicha bojxona to‘lovlari qo‘llanmaydigan bojxona rejimlari va bojxona to‘lovlari qo‘llanadigan bojxona rejimlariga bo‘linadi. Bojxona to‘lovlarini hisoblash va undirishda yuqoridagi omillarni hisobga olish bojxona to‘lovlarini undirish samaradorligini yanada oshiradi.

4. O‘zbekiston Respublikasida import bojxona boji stavkalarining tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, uning tarkibida nol foizli stavkalar 39,3 %ni tashkil etgan. Eron Respublikasida esa «nol» bojxona boji stavkasi umuman qo‘llanilmaydi. Nol darajali stavkalar miqdori Eлда 16,7 %ni tovarlarga nisbatan, Hindistonda 2,1 %ni, Yevrosiyo iqtisodiy ittifoqida 15,8 %ni, Xitoyda 7,1 %ni, Tojikistonda 4,1 %ni tashkil etadi. Dunyoning aksariyat davlatlarida import bojxona boji stavkalari tarkibida nol foizli stavkalar 16-20 %ni tashkil etadi. O‘zbekiston Respublikasida bu ko‘rsatkichni



39,3 % dan 20,0 % ga tushirish yoki 20,0 % tovarlarga o'rtacha 5 % li import bojxona boji stavkasini o'rnatish, import bojxona boji tushumini 4,5 trln. so'mga oshishiga olib keladi. Bojxona to'lovlari turlari va stavkalarini optimallashtirish bo'yicha, importda aksiz solig'iga tortilayotgan tovarlarning stavkasini Jahon savdo tashkiloti talablari asosida aynan bir xil ichki ishlab chiqarilgan tovalar bilan bir xil belgilash, bojxona yig'imlarining miqdori bojxona organlari tomonidan bojxona harakatlarini amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarining taxminiy qiymatidan oshib ketishi mumkin emasligi taklif etildi.

5. Bojxona organlari tomonidan undirilgan va Davlat budjetining daromadlariga o'tkazilgan bojxona to'lovlari tahlil qilish va ularning muammolarini o'rganish yuzasidan quyidagilar ishlab chiqildi:

- chegara bojxona postlari tomonidan vaqtincha saqlaganlik uchun bojxona xizmatini amalga oshirilganligi uchun yig'im joriy etilishi bojxona chegarasidan o'tayotgan jismoniy shaxslarga qulaylik yaratgan va bojxona to'lovlarining ko'payishiga olib kelgan, buning natijasida 2023-yil 13,5 mln. so'm tovarlarni chegara bojxona postlari tomonidan vaqtincha saqlaganlik uchun yig'im undirildi;

- bojxona to'lovlarini vakolatli iqtisodiy operatorlarga kechiktirib yoki bo'lib-bo'lib to'lash imkoniyati berilganda ushbu muddat uchun foizlar hisoblamaslik taklifi kiritilishi natijasida, ularning soni 2023-yilda 44 tani, 2024-yilda 49 tani tashkil etgan. Bu esa tadbirkorlikda halol tashqi iqtisodiy faoliyat qatnashchilar sonini ko'payishiga xizmat qilib, bojxona to'lovlarini undirish mexanizmi samarasini yanada oshiradi;

- bojxona rasmiylashtiruv bilan bog'liq bo'lmagan bojxona yig'imlarini undirishda bojxona kirim orderining soddalashtirilgan shaklini qo'llash natijasida, bojxona amaliyotida bojxona rasmiylashtiruv bilan bog'liq bo'lmagan bojxona yig'imlarini undirishdagi noaniqliklar va tushunmovchiliklarni oldi olinib, bartaraf etilgan, bojxona to'lovlarini undirish mexanizmi takomillashgan. 2024-yilning 4 oyida bojxona hamrohligida kuzatib borganlik uchun va egasi bojxona organi bo'lgan bojxona omborida tovarlarni saqlaganlik uchun yig'imlardan 20,7 mlrd. so'm miqdorda to'lovlar undirilgan.

- majburiyatning sud qaroriga ko'ra tugatilganligi oqibatida yoxud qarzdor bankrot bo'lganligi, tugatilganligi yoki vafot etganligi oqibatida to'lanishi mumkin bo'lmagan bojxona to'lovlari bo'yicha qarzdorlik umidsiz qarz deb hisoblanishi natijasida, bu yo'nalishda yillar davomida muammo bo'lib kelayotgan holatlar o'z yechimini topgan.

6. Bojxona to'lovlaridan beriladigan imtiyozlarning ko'payishi mamlakat tashqi savdo aylanmasini ortishiga, jumladan, import tovarlarining ortishiga olib kelishi, aksincha uning kamayishi esa, import tovarlarini qisqartiradi. Bu esa mamlakat savdo balansida ijobiy saldoga erishishda muhim rol o'ynab, davlat budjetining daromadlar qismiga bojxona to'lovlari tushumining ko'payishiga olib keldi.

